



KOMPOZITORLAR SAN'ATI: TARIXIY RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY YO'NALISHLAR

Ro'ziyeva Munisa G'anijon qizi

Guliston davlat pedagogika institute

Musiqqa ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompozitorlik san'atining shakllanish jarayoni, uning turli davrlarda rivojlanishi, kompozitorlarning musiqiy tafakkurga qo'shgan hissasi hamda zamonaviy kompozitorlik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kompozitor ijodida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro uyg'unlashuvi yoritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa rahbari, zamonaviy talablar, pedagogik mahorat, ijodiy yondashuv, rahbarlik ko'nikmalari, texnologik savodxonlik, musiqiy liderlik, jamoani boshqarish

КОМПОЗИТОРСКОЕ ИСКУССТВО: ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируется процесс становления композиторского искусства, его развитие в разные периоды, вклад композиторов в музыкальное мышление, а также современные композиторские направления. Также в творчестве композитора освещается взаимопроникновение национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: композитор, музыкальное искусство, композитор, историческое развитие, современная композиция, узбекская музыка, музыкальная мысль, национальное наследие.

THE ART OF COMPOSERS: HISTORICAL DEVELOPMENT AND MODERN TRENDS

Annotation: This article analyzes the process of formation of the art of composing, its development in different periods, the contribution of composers to



musical thought, as well as the directions of modern composing. The composer's work also highlights the harmonization of national and universal values

Keywords: *composer, art of music, composer, historical development, modern composition, Uzbek music, musical thought, national heritage*

Kirish:

Etnografik va arxeologik tadqiqotlarga tayangan ko‘plab olimlar musiqa san'ati insoniyatni ibtidoiy jamiyat davrida shakllanishi, uning bevosita mehnat va dam olish jarayoni, diniy marosimlar va harbiy yurishlar bilan bog‘liq holda rivoj topishini ta’kidlaydilar. Arxeologik qazilmalar asosida qadimgi devoriy suratlarda aks etib bitilgan chizma rasmlar orqali o‘lim marosimlarida ijro etiluvchi yig‘i-marsiyalar, harbiy marshlar, allalar, cho‘pon kuy va qo‘shiqlari shu singari aynan ko‘plab musiqiy janrlar mavjud bo‘lgani xususida asos yaratgan.

Asosiy qism:

1. Kompozitor haqida malumot

Kompozitor — musiqa asarlarini yaratadigan, ularni nazariy va badiiy jihatdan shakllantiruvchi ijodkordir. Kompozitorlar faqat nota yozuvchi yoki texnik musiqachilar emas; ular hissiyot, mafkura, madaniyat va estetik g‘oyalarni musiqiy shaklga keltiradigan san’atkorlardir.

Asosiy vazifalari:

- Musiqiy g‘oyani ishlab chiqish (melodiya, ritm, armoniya).
- Musiqiy shakl va janrni tanlash (simfoniya, sonata, kuylash, opera va hokazo).
- Musiqiy asarni notalar orqali yozish yoki zamonaviy texnologiya yordamida yaratish.
- Asar orqali tinglovchiga hissiyot va ma’naviy xabar yetkazish.

2. Bastakor kim?

Bastakor — musiqa asarlarini yaratuvchi, yangi musiqiy kompozitsiyalarni tuzuvchi san’atkor. Bastakor musiqiy g‘oyalarni melodiya, ritm, armoniya va boshqa musiqiy elementlar orqali ifodalaydi.



Bastakor kim bo'lishi uchun nima kerak?

-Musiqiy bilim – notani bilish, cholg'u chalish yoki vokal mahorat.

- Ijodiy tafakkur – yangi ohang va kompozitsiyalar yaratish.

- Madaniy kontekst – milliy musiqa an'analari, maqom, xalq kuylarini bilish va ulardan ilhom olish.

- Amaliy tajriba – asarlarni yaratish, ijro etish va tinglovchi bilan bog'lanish.

3. Bastakor va kompozitor farqi

Ko'p hollarda “bastakor” va “kompozitor” so'zlari sinonim sifatida ishlatiladi, ammo ayrim nuqtalarda farq bor:

- Bastakor — ko'proq xalq musiqa an'alarini rivojlantiruvchi, yangi qo'shiqlar, kuylashlar yoki maqom asarlarini yaratadigan shaxs.

- Kompozitor — kengroq professional musiqiy asar yaratish bilan shug'ullanadi, shu jumladan simfoniya, opera, kamera musiqasi, elektron musiqa

4.Zamonaviy kompozitorlik va yangi texnologiyalar

XXI asrda kompozitorlik san'ati quyidagi yo'nalishlarda faol rivojlanmoqda:

-Elektron musiqa va raqamli texnologiyalar asosida kompozitsiya yaratish.

-Kross-madaniy uyg'unlashuv: turli xalq musiqalarining modern kompozitsiyalarda qo'llanilishi.

-Kino va video-o'yin musiqasi - kompozitorlikning eng talabgir yo'nalishlaridan biri.

-Sun'y intellekt yordamida kompozitsiya

-Zamonaviy kompozitor uchun musiqa nafaqat an'anaviy nota matnida, balki kompyuter dasturlari orqali shakllanadigan audio-tovushli struktura sifatida ham namoyon bo'ladi.

5.Kompozitor va bastakorlik san'atining ilmiy-nazariy kategoriyalari

Kompozitor va bastakorlik faoliyati musiqiy tafakkurning eng murakkab hodisasi sifatida ko'riladi. Kompozitorlik nafaqat badiiy ijod jarayoni, balki akustik, psixologik, semiotik va estetik qonuniyatlarga tayangan ilmiy asosga ega.



Kompozitsiya nazariyasi shuni ko'rsatadiki, musiqa yaratilishi uchta asosiy komponent — g'oya, struktura va ifoda vositalari integratsiyasidan iborat. Ushbu komponentlarning uyg'unligi kompozitor dunyoqarashining yaxlitligini ta'minlaydi.

Kompozitor faoliyatidagi ilmiy metodlar musiqiy materialni modellashtirish, struktural abstraksiyalar yaratish, tematik rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish va ularni badiiy maqsadga bo'ysundirishni o'z ichiga oladi. Shu sababli bastakorlik jarayoni doimo nazariy asoslangan, bosqichma-bosqich rivojlanadigan, ammo bir vaqtning o'zida intuitiv kechadigan murakkab jarayondir.

6. Musiqiy til, struktura va kompozitsion tamoyillarning ilmiy tahlili

Musiqiy til kompozitorning eng asosiy ifoda vositasidir. Uning struktural tahlili quyidagi ilmiy kategoriyalarni o'z ichiga oladi:

1. Melodik sintaksis

Melodik sintaksis intervalik harakat, frazalash, kadensiya, intonatsion birliklar va ularning semantik yuklamalarini o'z ichiga oladi. Melodiya musiqiy mazmunning asosiy tashuvchisi bo'lib, kompozitorning badiiy niyatini aks ettiradi.

2. Garmonik tizimlar

Garmonik qurilish klassik diatonik tizimdan tortib, xromatika, politonalizm, atonalizm, serial texnika va kvazimodal strukturalar bilan boyigan. Kompozitor garmonik vositalarni badiiy niyat orqali tanlaydi. Masalan:

- lirik mazmunda — yumshoq diatonik konstruksiyalar,
- dramatik mazmunda — kuchli dissonanslar,
- modernistik yo'nalishda — atonal strukturalar ko'proq uchraydi.

3. Ritmik va metrik tizim

Ritmik modellar musiqaning dinamik harakatini belgilaydi. O'zbek musiqasidagi usul tizimi ritmik fikrlashning qadimiy shakli bo'lib, kompozitorlar tomonidan zamonaviy talqinlarda qayta ishlanmoqda. Raqamli musiqa esa ritmik texnologiyalarning murakkablashuvini yanada kuchaytirdi.

4. Struktur-kompozitsion tamoyillar



Композитор asar tuzilishida quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- tematik rivojlantirish,
- variatsion ishlov berish,
- konstruktiv kontrastlar,
- simmetriya va proporsiya,
- sonata shaklining dialektik qarama-qarshilik tamoyillari.

Mazkur tamoyillar musiqaaning ichki mantiqiy butunligini ta'minlaydi.

Xulosa

Композиторlik san'ati insoniyat madaniyatining doimiy rivojlanib boruvchi sohasi bo'lib, har bir davr o'zining badiiy-estetik tamoyillarini musiqa ifoda etadi. Tarixiy kompozitorlar musiqiy tafakkurni shakllantirgan bo'lsalar, zamonaviy bastakorlar texnologiya imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi musiqiy g'oyalar yaratmoqdalar. O'zbek kompozitorlik maktabi esa milliy va jahon musiqa madaniyatini uyg'unlashtirish orqali o'zining yuksak salohiyatini namoyish etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev R. "O'zbek musiqa san'ati tarixi". - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. "Jahon musiqa tarixi" R.Tursunova Toshkent 2017
3. Галущенко И. "История музыки народов мира"- 2008.
4. Гуревич Е. "История зарубежной музыки". 2-е изд. - М., 2000.
5. Друскин М. Клавирная музыка Испании, Англии, Нидерландов, Франции, Италии, Германии XVI-XVIII веков. - Л., 1960.
6. Друскин М. Иоганн Себастьян Бах. - М.: Музыка, 1982
7. Евдокимова Е. Многоголосие средневековья X-XIV века. История полифонии. Вып. I. - М., 1983.